

2017 yil yanvar-mart oylarining yakunlari bo'yicha "O'zkimyosanoat" AJ korxonalarini faoliyati to'g'risida

// 11.04.2017

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2017-yil-yanvar-mart-oylarining-yakunlari-buyicha-uzkimyosanoat-azh-korhonalari-faoliyati-tugrisida>

2017 yilning birinchi choragida "O'zkimyosanoat" korxonalarida 480,1 mlrd. so'mlik tovar mahsulot hamda 26,6 mlrd. so'mlik xalq iste'mol mollari ishlab chiqarildi.

Sof holda 219,89 ming tonna mineral o'g'itlar, shu jumladan 157,05 ming tonna azotli o'g'itlar, 30,41 ming tonna fosforli o'g'itlar va 32,43 ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

Mahsulot eksportining prognozi 112%ga bajarildi.

Mahalliyashtirish dasturiga muvofiq hisobot davrida 4,8 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

2017 yil Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni bajarish doirasida "O'zkimyosanoat" AJ korxonalarini tomonidan 45,8 mln.dollar hajmida investitsiyalar o'zlashtirildi.

X Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsion birjasida tuzilgan shartnomalarga binoan 102,5 mlrd.so'mlik mahsulot kompaniya korxonalarini tomonidan sotib olindi.

"O'zkimyosanoat" AJ matbuot xizmati